2.2.Modul. Bolalar va o‘smirlar muassasalari turlari,ularga qo‘yiladigan gigienik talablar va ularni nazorat qilish.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	18 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>Bolalar va o‘smirlar organizmi tuzilishining yoshiga mos anatomik va fiziologik hususiyatlari. Bolalar va o‘smirlar muassasalari turlari. Bolalar va o‘smirlar muassasalariga qo‘yiladigan sanitariya-gigienik talablar. Bog‘cha va maktabni loyihalashtirish, qurilishiga qo‘yiladigan sanitariya-gigienik talablar. Bolalar bog‘chalariga sanitariya-gigienik baho berish. Kichik maktab yoshida sinf xonalari, mebellari, kun tartibi, dars jadvallariga sanitariya-gigienik baho berish. Balog‘at yoshidagi o‘smirlar kun tartibiga qo‘yilgan sanitariya-gigienik talablar. Bolalar va o‘smirlar muassasalarini sanitariya-gigienik nazorat qilishda Sanepidxizmat markazlarining vazifalari. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishini aniqlash va baho berish. Bolalar va o‘smirlarni jismoniy, aqliy va jinsiy rivojlanishini nazorat qilish.</p>
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Bolalar va o‘smirlar organizmi tuzilishining yoshiga mos anatomik va fiziologik hususiyatlarini; • bolalar va o‘smirlar muassasalari turlarini; • bolalar va o‘smirlar muassasalariga qo‘yiladigan sanitariya-gigienik talablarni; • bog‘cha va maktabni loyihalashtirish, qurilishiga qo‘yiladigan sanitariya-gigienik talablarni; • balog‘at yoshidagi o‘smirlar kun tartibiga qo‘yilgan sanitariya-gigienik talablarni; • bolalar va o‘smirlar muassasalarini sanitariya-gigienik nazorat qilishda Sanepidxizmat markazlarining vazifalarini.
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Bolalar bog‘chalariga sanitariya-gigienik baho berishni; • kichik maktab yoshida sinf xonalari, mebellari, kun tartibi, dars jadvallariga sanitariya-gigienik baho berishni; • maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlanishini aniqlash va baho berishni; • bolalar va o‘smirlarni jismoniy, aqliy va jinsiy rivojlanishini nazorat qilishni.

2.3.Modul. Ovqatlanish gigienasi. Oziq–ovqat mahsulotlarining sifatiga sanitariya gigienik baho berish.

O‘quv moduliga ajratilgan kredit:	20 kredit
O‘quv moduli mazmuni:	<p>“Oziq –ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi” qonun mohiyati va mazmuni. Ovqatlanish gigienasi. Ovqat kaloriyasiga sanitariya-gigienik baho berish. Asosiy ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning fiziologik ahamiyati. Kamqonlik, buqoq, jinsiy zaiflikni kelib chiqishida ovqatlanishning roli. Ovqat mahsulotlarini konservatsiya qilish usullari. Go‘sh va go‘sh mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, don mahsulotlari, tuxumga sanitariya-gigienik baho berish. Ovqatdan mikrobl va mikrobsiz zaharlanishlar. Ovqat mahsulotlarini saqlash va transportirovka qilish. Umumiy ovqatlanish muassasalarini qurishni rejalashtirish, qurish va jihozlash, ekspluatatsiya qilishni sanitariya jihatidan nazoratni qilish. Oshxona xodimlarining shaxsiy gigienasi va sanitariya bilimni nazorat qilish. Oshxona xodimlarini dispanserizatsiyadan o‘tishini nazorat qilish.</p> <p>Ovqat mahsulotlarini tekshirish usullari. Sinama olish, organoleptik, fizikaviy va kimyoviy tekshirish usullari.</p> <p>Tayyor taomlarni tekshirish. Tayyor taomlarni tekshirish uchun sinama olish, organoleptik baholash, ovqat tarkibidagi yog‘, karbon suv, mineral tuz va kalloriyasini aniqlash. Taomnoma (menyu-raskladka) bo‘yicha kalloriyasini hisoblash, ovqat tarkibidagi minerallari va vitaminlari miqdoriga baho berish. Oshxonani sanitar gigienik jihatdan tekshiruv xaritasini to‘ldirish, ma’lumotnoma yozish.</p>
O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • “Oziq –ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi” qonun mohiyati va mazmunini; • ovqatlanish gigienasini; • asosiy ovqat mahsulotlari: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, karbon suvlari, vitaminlar, mineral tuzlar va ularning fiziologik ahamiyatini; • kamqonlik, buqoq, jinsiy zaiflikni kelib chiqishida ovqatlanishning rolini; • ovqat mahsulotlarini konservatsiya qilish usullarini; • ovqatdan mikrobl va mikrobsiz zaharlanishlarni; • ovqat mahsulotlarini tekshirish usullarini; • sinama olish, organoleptik, fizikaviy va kimyoviy tekshirish usullarini.
O‘quv moduli yakunida	<ul style="list-style-type: none"> • Ovqat kaloriyasiga sanitariya-gigienik baho berishni; • go‘sh va go‘sh mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari,

<p>tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<p>don mahsulotlari, tuxumga sanitariya-gigienik baho berishni;</p> <ul style="list-style-type: none"> • ovqat mahsulotlarini saqlash va transportirovka qilishni; • umumiy ovqatlanish muassasalarini qurishni rejalashtirish, qurish va jihozlash, ekspluatatsiya qilishni sanitariya jihatidan nazoratni qilishni; • oshxona xodimlarining shaxsiy gigienasi va sanitariya bilimni nazorat qilishni; • oshxona xodimlarini dispanserizatsiyadan o'tishini nazorat qilishni; • tayyor taomlarni tekshirishni; • tayyor taomlarni tekshirish uchun sinama olish, organoleptik baholash, ovqat tarkibidagi yog', karbon suv, mineral tuz va kalloriyasini aniqlashni; • taomnoma (menyu-raskladka) bo'yicha kalloriyasini hisoblashni; • ovqat tarkibidagi minerallar va vitaminlar miqdoriga baho berishni; • oshxonani sanitar gigienik jihatdan tekshiruv xaritasini to'ldirish, ma'lumotnoma yozishni.
---	---

2.4.Modul. Kommunal gigiena.

<p>O'quv moduliga ajratilgan kredit:</p>	<p>18 kredit</p>
<p>O'quv moduli mazmuni:</p>	<p>Toza ichimlik suvini odamlarga yetkazib berish va sifatini nazorat qilishda laboratoriyaning ahamiyati. Ichiladigan suvga qo'yiladigan Davlat Standartlari talablari. Suvni analiz qilish uchun sinama olish. Ichimlik suvi sifatini tekshirish usullari. Xo'jalik chiqindi suvlari, turar joylardan chiqadigan chiqindi suvlarning sanitariya normasi, chiqindi suvlarning rN reaksiyasini aniqlash. Suvni mexanik usulda tozalash. Ilmiy texnika revolyutsiyasining tuproqqa ta'siri. Tuproqning fizik xossalari va epidemiologik ahamiyati. Tuproqni Davlat Sanitariya va epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan muhofaza qilinishi. Fizik kimyoviy tekshirishlar uchun tuproqdan sinama olish, kerakli asbob anjomlarni tayyorlash. Tuproqdan geksoxlaran va DDT ni aniqlash, tuproqdan ekstraksiya olish, xromotografiyalash. Tuproqni tekshirish uchun kerakli asbob-anjomlar. Turar joy binosini sanitariya jihatdan tekshirish kartasini to'ldirish. Yorug'lik koefitsentini aniqlash. Nur oqimi, yorug'lik oqimi, yorug'lik kuchi, yoritilganlik. Yoritiladigan ob'ektlarni</p>

	<p>tekshirish va jadvalini tuzish. Shovqin o'lchagich va uni ishga tayyorlash, darajasini o'lchash. Vibratsiyani o'lchash. Havoning harorati, namligi, harakat tezligi, atmosfera bosimini aniqlash. Aspiratsion usul, idishlarga havo olish, filtrlarni qo'llanilib havo olish.</p>
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Toza ichimlik suvini odamlarga yetkazib berish va sifatini nazorat qilishda laboratoriyaning ahamiyatini; • ichiladigan suvga qo'yiladigan Davlat Standartlari talablarini; • ichimlik suvi sifatini tekshirish usullarini; • xo'jalik chiqindi suvlari, turar joylardan chiqadigan chiqindi suvlarning sanitariya normasini; • ilmiy texnika revolyutsiyasining tuproqqa ta'sirini; • tuproqning fizik xossalari va epidemiologik ahamiyatini; • tuproqni Davlat Sanitariya va epidemiologiya nazorati markazlari tomonidan muhofaza qilinishini.
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Suvni analiz qilish uchun sinama olishni; • chiqindi suvlarning rN reaksiyasini aniqlashni; • suvni mexanik usulda tozalashni; • fizik kimyoviy tekshirishlar uchun tuproqdan sinama olish, kerakli asbob anjomlarni tayyorlashni; • tuproqdan geksoxlaran va DDT ni aniqlash, tuproqdan ekstraksiya olish, xromotografiyalashni; • tuproqni tekshirish uchun kerakli asbob-anjomlarni yig'ishni; • turar joy binosini sanitariya jihatdan tekshirish kartasini to'ldirishni; • yorug'lik koefitsentini aniqlashni; • nur oqimi, yorug'lik oqimi, yorug'lik kuchi, yoritilganlikni; • yoritiladigan ob'ektlarni tekshirish va jadvalini tuzishni; • shovqin o'lchagich va uni ishga tayyorlash, darajasini o'lchashni; • vibratsiyani o'lchashni; • havoning harorati, namligi, harakat tezligi, atmosfera bosimini aniqlashni; • aspiratsion usul, idishlarga havo olish, filtrlarni qo'llab havo olishni.

2.5.Modul. Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablar.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	<p>Mehnat gigienasi. Mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablar. Mehnatning sanitariya sharoitlarini o'rganish. Ishlab chiqarishda bo'ladigan zaharlanishlarning sabablarini, ventilyatsiya, apparatlarning germetikligi samarasini tekshirish. Zaharli moddalarni ruxsat etilgan miqdor (REM) chegara konsentratsiyasi. Zaharli moddalarni ta'sir qilish darajalari. Ishlab chiqarishda qo'rg'oshin va simobni organizmga ta'siri. Davlat andozasiga asosan havo tarkibidagi changni aniqlash. Filtr qog'oziga olinadigan namunalari. Silikozning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari rentgenologik ko'rinishlari. Ish joylaridagi chang tarkibini aniqlash. Namunalarni olish va tekshirishni o'tkazish. Fizik omillarni o'lchash. Tekshiruv bayonnomasini to'ldirish. Havoni fizik ko'rsatkichlarini aniqlash. Elektromagnit maydoni omillarini ishchi organizmga ta'siri, o'lchash usullari. Shovqinni nerv va asab sistemasiga ta'siri. Ishlab chiqarish shovqiniga qarshi kurash choralarini. Korxonada dastgohlari tebranishining odam organizmiga ta'sirini aniqlash va uning oldini olish. Vibrometr va vibrograf asboblarning tuzilishi va ishlatish. NVA-1 vibroo'lchagich bilan tebranishni o'lchash. Ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ventilyatorlar tasnifi, binolar aeratsiyasi va uning rejimi. Mexanik ventilyatsiya. Havo so'radigan ventilyatsiya. Zavod va fabrikalar ustidan texnikaviy nazorat. Sanitariya normativlari va tavsiyalari, texnik o'lchash usullarini bilish.</p>
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Mehnat gigienasini; • mehnat sharoitiga qo'yiladigan sanitariya gigienik talablarni; • mehnatning sanitariya sharoitlarini; • zaharli moddalarni ruxsat etilgan miqdor (REM) chegara konsentratsiyasini; • zaharli moddalarni ta'sir qilish darajalarini; • ishlab chiqarishda qo'rg'oshin va simobni organizmga ta'sirini; • filtr qog'oziga olinadigan namunalarni • silikozning etiologiyasi, patogenezi, klinik belgilari rentgenologik ko'rinishlarini; • elektromagnit maydoni omillarini ishchi organizmga ta'siri, o'lchash usullarini; • shovqinni nerv va asab sistemasiga ta'sirini; • ishlab chiqarish shovqiniga qarshi kurash choralarini;

	<ul style="list-style-type: none"> • ishlab chiqarishda qo'llaniladigan ventilyatorlar tasnifi, binolar aeratsiyasi va uning rejimini; • mexanik ventilyatsiyani; • havo so'radigan ventilyatsiyani; • zavod va fabrikalar ustidan texnikaviy nazoratni; • sanitariya normativlari va tavsiyalari, texnik o'lchash usullarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Ishlab chiqarishda bo'ladigan zaharlanishlarning sabablarini, ventilyatsiya, apparatlarning germetikligi samarasini tekshirishni; • davlat andozasiga asosan havo tarkibidagi changni aniqlashni; • ish joylaridagi chang tarkibini aniqlashni; • namunalarni olish va tekshirishni o'tkazishni; • fizik omillarni o'lchashni; • tekshiruv bayonnomasini to'ldirishni; • havoni fizik ko'rsatkichlarini aniqlashni; • korxonada dastgohlari tebranishining odam organizmiga ta'sirini aniqlash va uning oldini olishni; • vibrometr va vibrograf asboblarning tuzilishi va ishlatishni; • NVA-1 vibroo'lchagich bilan tebranishni o'lchashni.

2.6.Modul. Toksikologiya bo'limi laboratoriyasi ishini tashkil etish. Zaharli ximikatlarni qoldiqlarini aniqlash.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O'quv moduli mazmuni:	<p>Toksik moddalarning keltirib chiqaradigan allergik, kanserogen va boshqa ta'sirlari. Shaharlarda havoni ifloslantiruvchi eng asosiy manbalar. Endemik kasalliklar. Tuproqdagi zaharli moddaning REMsini aniqlash. Tuproqning kimyoviy moddalar bilan ifloslanganlik ko'rsatkichini aniqlash. Turar joylarni ifloslanishi, avtomobil transportining rivojlanishini atmosfera havo tarkibiga salbiy ta'sirlari. Havodan sinama olish. Havo tarkibidagi uglerod (II) oksid gazini aniqlash texnikasi. Tashqi muhit ob'ektlaridan havoning tarkibidagi uglerod (IV) oksidini aniqlash uchun sinama olish. Zaharli o'simliklar tarkibidagi zaharli ximikatlardan zaharlanish. Xo'jalik – ichimlik suvi, tarkibidagi xlororganik zaharli ximikatlarni aniqlash. Suvdagi zararli moddalar REMsini aniqlash. Suvni titrlash, qo'shimcha ko'effitsentini aniqlash. Polimer, plastmass, kosmetika-parfyumeriya, qurilish</p>

	<p>materiallari, uy ro‘zg‘or anjom va mebellarning tarkibidan ajraluvchi toksik elementlar, sinflari, turlari va ularning tavsifi. Bu moddalar uchun ruxsat etilgan miqdor (REM). Organoleptik, kimyoviy va fizikaviy tekshirishlarni o‘tkazish. Laboratoriyaga keltirilgan namunalarni tahlil qilish uchun kerakli eritmalarni tayyorlash. Zaharli birikmalarning organizmga ta’siri. Zaharli birikmalar va ular bilan zaharlanishlarni oldini olish chora-tadbirlari.</p>
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Toksik moddalarning keltirib chiqaradigan allergik, kanserogen va boshqa ta’sirlarini; • shaharlarda havoni ifloslantiruvchi eng asosiy manbalarni; • endemik kasalliklarni; • turar joylarni ifloslanishi, avtomobil transportining rivojlanishini atmosfera havo tarkibiga salbiy ta’sirlarini; • zaharli o‘simliklar tarkibidagi zaharli ximikatlardan zaharlanishni; • polimer, plastmass, kosmetika-parfyumeriya, qurilish materiallari, uy- ro‘zg‘or anjom va mebellarning tarkibidan ajraluvchi toksik elementlar, sinflari, turlari va ularning tavsifini; • bu moddalar uchun ruxsat etilgan miqdor (REM)ni; • zaharli birikmalarning organizmga ta’sirini; • zaharli birikmalar va ular bilan zaharlanishlarni oldini olish chora-tadbirlarini.
<p>O‘quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Tuproqdagi zaharli moddaning REMsini aniqlashni; • tuproqning kimyoviy moddalar bilan ifloslanganlik ko‘rsatkichini aniqlashni; • havodan sinama olishni; • havo tarkibidagi uglerod (II) oksid gazini aniqlash texnikasini; • tashqi muhit ob’ektlaridan havoning tarkibidagi uglerod (IV) oksidini aniqlash uchun sinama olishni; • xo‘jalik – ichimlik suvi, tarkibidagi xlororganik zaharli ximikatlarni aniqlashni; • suvdagi zararli moddalar REMsini aniqlashni; • suvni titrlash, qo‘shimcha koeffitsentini aniqlashni; • organoleptik, kimyoviy va fizikaviy tekshirishlarni o‘tkazishni; • laboratoriyaga keltirilgan namunalarni tahlil qilish uchun kerakli eritmalarni tayyorlashni.

2.7.Modul. Bakteriologik va parazitologik laboratoriya tekshirishlar.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	12 kredit
O'quv moduli mazmuni:	<p>Yuqumli kasalliklarni aniqlash va tashxis qo'yish. Bemorlarni ajratish tadbirlari. Epidemiologik tahlil va uning asosiy yunalishlari. Epidemiologik tahlilining turli guruh yuqumli kasalliklarining tarqalishi, oldini olish hamda ularga qarshi kurashishdagi ahamiyati. Epidemiologik tashxis va tahlil. Epidemiologik tadqiqotlar. Tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni taqqoslash va guruhlash. Dezinfeksiya, uning turlari, usullari, zararsizlantirishning zamonaviy usullari. Kasallikning tarqalish va yuqish joylarida hamda manbalarida dezinfeksiyaning o'рни va ahamiyati. Dezinfeksiya o'tkazishda mehnat va texnika xavfsizligini ta'minlash. Oksidlovchilar guruhi va ulardan amaliyotda foydalanish. Eritma – aralashmalar tayyorlash. Antiseptik va kimyoviy vositalar, ulardan laboratoriyada foydalanish. Infekcion kasallik. Hashoratlar tarqatadigan infekcion kasalliklar, epidemiologiyasi, tarqalishi. Bo'g'im oyoqlilar keltirib chiqaradigan kasallik belgilari. Davolash. Asoratlari. Profilaktika chora-tadbirlari. Dezinfeksiya, deratizatsiya, dezinseksiya. Bo'g'im oyoqlilarni yig'ish metodlarini o'rganish. Bo'g'im oyoqlilar–infekcion kasalliklarning tashuvchilari morfologiyasini o'rganish. Leyshmaniozlar. Teri leyshmaniozi, visseral leyshmanioz. Kasallik belgilari, laboratoriya diagnostika metodlari. Profilaktikasi asosiy prinsiplari. Yaralardan surtmalar olish usullari, suyak iligidan surtma tayyorlash. Surtmalarni ko'zdan kechirish. Leyshmaniozlar qo'zg'atuvchilarining preparatlarini ko'zdan kechirish. Bezgak. Laborator tashxislash. Tashuvchi ustidan kuzatish va unga karshi kurash chora-tadbirlari. Qon surtmalari va yirik qon tomchi preparatlarini tayyorlash va ularni bezgakga tekshirish texnikasini egallash. Parazitar kasalliklarga namuna olish va tahlil uchun laboratoriyaga yuborish. Toksoplazmoz. Toksoplazmozning laboratoriya diagnostikasi parazitologik tekshirishlar va immunologik reaksiyalarni aniqlash. Immunologik reaksiyalar qo'yish. Sekbin – Filtmon buyog'i. Turli organlardan biopsiya yo'li bilan olingan to'qima bo'lakchalari, orka miya suyuqligi, qon, jasad organ bo'lakchalarini mikroskopiya qilish. Balantidiaz, qo'zg'atuvchisi biologik xususiyatlari, kasallik belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlari. Lyamblioz. Biologik xususiyatlari, jahonda tarqalishi, yuqish yo'llari, kasallik</p>

	<p>belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlari. Bolalarni ro'yxatga olish, emlash ishlarini rejalashtirish, vaksina va zardoblar.</p>
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Infektsion kasalliklarni; • epidemiologik tahlil va uning asosiy yunalishlarini; • epidemiologik tahlilining turli guruh yuqumli kasalliklarining tarqalishi, oldini olish hamda ularga qarshi kurashishdagi ahamiyatini; • epidemiologik tashxis, tahlil va tadqiqotlarni; • dezinfeksiya, uning turlari, usullari, zararsizlantirishning zamonaviy usullarini; • kasallikning tarqalish va yuqish joylarida hamda manbalarida dezinfeksiyaning o'rni va ahamiyatini; • oksidlovchilar guruhi va ulardan amaliyotda foydalanishni; • hashoratlar tarqatadigan infektsion kasalliklar, epidemiologiyasi, tarqalishini; • bo'g'im oyoqlilar keltirib chiqaradigan kasallik belgilari, davolash, asoratlari, profilaktika chora-tadbirlarini; • dezinfeksiya, deratizatsiya, dezinseksiyani; • bo'g'im oyoqlilarni yig'ish metodlarini; • infektsion kasalliklar tashuvchi bo'g'imoyoqlilar morfologiyasini; • leishmaniozlar, turlarini; • teri, visseral leishmaniozlar keltirib chiqargan kasallik belgilari, laboratoriya diagnostika va profilaktikasini asosiy prinsiplarini; • bezgak, laborator tashxislash, tashuvchi ustidan kuzatish va unga qarshi kurash chora-tadbirlarini; • balantidiaz, qo'zg'atuvchisi biologik xususiyatlari, kasallik belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlarini; • lyamblioz, biologik xususiyatlari, jahonda tarqalishi, yuqish yo'llari, kasallik belgilari, laborator tashxislash, davolash profilaktika chora-tadbirlarini; • bakteriologik va parazitlar kasalliklarda qo'llaniladigan vaksina va zardoblarni.
<p>O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:</p>	<ul style="list-style-type: none"> • Yuqumli kasalliklarni aniqlash va tashxis qo'yishni; • bemorlarni ajratish tadbirlarini; • epidemiologik tashxis, tahlil va tadqiqotlarni o'tkazishni; • tekshirish natijasida olingan ma'lumotlarni taqqoslash

	<p>va guruhlashni;</p> <ul style="list-style-type: none"> • dezinfeksiya o'tkazishda mehnat va texnika xavfsizligini ta'minlashni; • eritma – aralashmalar tayyorlashni; • antiseptik va kimyoviy vositalar, ulardan laboratoriyada foydalanishni; • yaralardan surtmalar olish usullari, suyak iligidan surtma tayyorlashni; • surtmalarni ko'zdan kechirishni; • leishmaniozlar qo'zg'atuvchilarining preparatlarini ko'zdan kechirishni; • qon surtmalari va yirik qon tomchi preparatlarini tayyorlash va ularni bezgakga tekshirish texnikasini; • parazitar kasalliklarga namuna olish va tahlil uchun laboratoriyaga yuborishni; • toksoplazmozda laborator, parazitologik tekshirishlar va immunologik reaksiyalarni aniqlashni; • immunologik reaksiyalar qo'yishni; • Sekbin – Filtmon buyog'ini tayyorlashni; • turli organlardan biopsiya yo'li bilan olingan to'qima bo'lakchalari, orqa miya suyuqligi, qon, jasad organ bo'lakchalarini mikroskopiya qilishni; • bolalarni ro'yxatga olish, emlash ishlarini rejalashtirishni.
--	--

2.8.Modul.Virusologiyada zamonaviy tekshirish usullari

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Viruslar tuzilishi va tasnifi. Viruslarga xos hususiyatlar. Viruslarning organizmga kirishi va ko'payishi, tashqi muhitga va kimyoviy moddalarga chidamliligi. Tekshirish uchun material to'plash, asosiy tekshirish usullari, virusni ajratib olish. Virusologik tekshirishlarni olib borish uchun ko'rsatmalar va laboratoriya tekshiruvini uchun kerakli tahlillarni olish qoidasi, ularni laboratoriyaga yetkazish. Viruslarni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy tekshirish usullari. Serologik usul bilan tashxis qo'yish. IFA, ekspress, IB, PZR usullarida tekshirish.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Viruslar tuzilishi va tasnifini; • viruslarga xos hususiyatlarini; • viruslarning organizmga kirishi va ko'payishi, tashqi muhitga va kimyoviy moddalarga chidamliligini; • virusologik tekshirishlarni olib borish uchun

	ko'rsatmalarini; <ul style="list-style-type: none"> • viruslarni asosiy tekshirish usullarini; • viruslarni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy tekshirish usullarini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Tekshirish uchun material to'plash, virusni ajratib olishni; • laboratoriya tekshiruvini uchun kerakli tahlillarni olish, ularni laboratoriyaga yetkazishni; • serologik usul bilan tashxis qo'yishni; • IFA, ekspress, IB, PZR usullarida tekshirishni.

2.9. Modul. Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.

O'quv moduliga ajratilgan kredit:	6 kredit
O'quv moduli mazmuni:	Favqulodda vaziyatlar, halokatlar haqida asosiy tushunchalar. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Tibbiy evakuatsiya bosqichlari. Favqulotda vaziyatlarda o'rta tibbiyot xodimining vazifalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (trijaj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak- o'pka reanimatsiyasini "SAV" ketma-ketligida o'tkazish algortmi.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bilishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Favqulodda vaziyatlar va halokatlarning asosiy turlarini; • favqulotda vaziyatlar tasnifi, kelib chiqish sabablari, manbalarini; • tibbiy evakuatsiya bosqichlarini; • jarohatlanganlarni tibbiy saralash tartibini; • favqulotda vaziyatlarda o'rta tibbiyot xodimining vazifalarini; • evakuatsiya bosqichlarida tibbiy yordam turlarini; • ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatishni; • o'tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak- o'pka reanimatsiyasini.
O'quv moduli yakunida tinglovchi bajara olishi lozim:	<ul style="list-style-type: none"> • Favqulotda vaziyatlarda shikastlanish turiga qarab jabrlanganlarni tibbiy saralashni; • texnogen, tabiiy, ekologik tushdagi favqulotda vaziyatlarda birinchi yordam ko'rsatishni;

	<ul style="list-style-type: none"> • jabrlanganlarni evakuatsiya qilishni; • transport avariylarida yordam ko'rsatishni; • jarohlarda ,suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatishni; • o'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni; • elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatishni; • o'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatishni; • sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatishni; • cho'kishda birinchi yordam ko'rsatishni; • bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatishni; • hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatishni; • o'tkir yurak qon – tomir yetishmovchiligida yurak-o'pka reanimatsiyasini asosiy tadbirlarning "SAV" ketma-ketligini bajarishni.
Adabiyotlar:	<p>T.Yu. Umarova ” Hamshiralik ishi” Toshkent-2005y V.Ye.Avakov O.V.Churilova A.M.Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoj dovrachebnoy pomoshchi.” 2010g. Yu.Allayorov Yu.Tojiboev“Favkulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”</p>

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIIY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Andijon filiali. Andijon shaxar bobosadin ko'chasi 18-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari/

Multimediali jamlanma: elektron doska, slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi – 30 ta, vaziyatli masalalar- 20 ta va test savollari 300 ta, imtixon biletlari 20 ta.

Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI.

4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta’limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarori.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 noyabrdagi “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ 4887-sonli qarori.
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 18 dekabrda “Yuqumli bo‘lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab – quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4063-sonli qarori.
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 25 iyuldagi “Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6035 sonli farmoni va unga muvofiq ishlab chiqilgan.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4790-sonli qarorlari
- 8.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining me‘yoriy hujjatlari.

4.3.2. Asosiy adabiyotlar:

1. Aripov M., Begalov V., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. Toshkent. Noshir, 2009 y.
2. Zakirova F. Informatika i informatsionnye texnologii T. Aloqachi, 2007g
3. Irgashev Sh.B. Valeologicheskie prinsipy ratsionalnogo pitaniya. Tashkent
4. Irgashev Sh.B., “Meditsinskaya Valeologiya”. Toshkent- 2012
5. “Infektsionnye bolezni s kursom VICH infektsii i epidemiologii”
6. “VICH – infeksiya” Pod redaksiye AN RUz Daminova.T.A Toshkent – 2010.
7. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv dasturi qo‘llanma. -2014y
8. Avtoklavlash va sterilizatsiyalashda texnika xavfsizligi buyicha o‘rta tibbiyot xodimlari uchun o‘quv uslubiy qullanma. Toshkent.2009.y
9. O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigienik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19
10. Tibbiy anjom-asboblardan buyumlarni sterilizatsiya qilish markazlarini loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya qilish sanitariya qoidalari va me‘yorlari.
11. SanQvaM № 0342/17 - 10 yanvar 2017 yil
12. Yu. Allayorov Yu. Tojiboev “Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”

13. Azizov M.A. «Umumiy gigiena va ekologiya» Toshkent, «Ilm ziyo», 2014 yil.
14. Esonturdiyev S.S, Qarshiboeva M.E, «Gigiena va sanitariya tekshirishlar texnikasi» Toshkent, «Ilm ziyo», 2007 yil.
15. Do'schanov D.A, Iskandarova Sh.T, Solixovjaev S.S. «Umumiy gigiena» Toshkent, «Ilm ziyo», 2001 yil.
16. A.B.Ganixovjaeva, X.A.Nazarova. «Mikrobiologiya» Toshkent, «Ilm Ziyov» nashriyoti, 2014 yil.
17. E.E.Eshboev «Mikrobiologiyadan amaliy mashg'ulotlar» Toshkent, «Ilm Ziyov» nashriyoti, 2011 yil
18. Fayziev Y.M., Fayzieva X.A. «Epidemiologiya va tibbiy parazitologiya» Toshkent, «Ilm ziyo» nashriyoti, 2007 yil
19. Bo'ronov M.A, Mirjonov K.M. «Tibbiyot parazitologiyasi va epidemiologiya asoslari». Toshkent, «Ilm ziyo» nashriyoti, 2004 yil

4.3.3. Elektron ta'lim resurslari:

1. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi – www.edu.uz
2. O'zR Sog'liqni saqlash vazirligi - www.minzdrav.uz
3. Medpoisk <http://www.medpoisk.ru/>
4. Russkiy meditsinskiy server <http://www.rusmedserv.com/>
5. Meditsinskiy katalog ROS-MEDIC <http://ros-medic.ru>
6. www.adti.uz
7. <http://www.medlinks.ru>

5.YaKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga quyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta'lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini baholash to'g'risidagi Nizom» asosida o'tkaziladi.

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТИББИЙ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАРКАЗИ
РЕСПУБЛИКА ЎРТА ТИББИЁТ ВА ФАРМАЦЕВТИКА ХОДИМЛАРИНИ
МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ ВА УЛАРНИ ИХТИСОСЛАШТИРИШ МАРКАЗИ**

АНДИЖОН ФИЛИАЛИ

**“САНИТАРИЯ-ЭПИДЕМИОЛОГИК ОСОЙИШТАЛИК ВА ЖАМОАТ
САЛОМАТЛИГИ ХИЗМАТИ ЛАБОРАТОРИЯ ЛАБОРАНТИ” МАЛАКА
ОШИРИШ ЙЎНАЛИШИДАГИ ИШЧИ ЎҚУВ ДАСТУРИ” ГА
ТАҚРИЗ**

“санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати лаборатория лаборанти” ишчи ўқув дастурининг мақсади: ўқиш натижасида ўрта тиббиёт ходимларининг мавжуд компетенцияларни такомиллаштириш ва касбий фаолият учун зарур билим ва кўникмаларни эгаллаш ва касбий даражасини ошириш. санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати лабораториялари лаборантларини ҳар томонлама етук, мутахассислик доирасида етарли билим ва кўникмаларга эга бўлишларига эришиш, улар фаолиятини такомиллаштириш, мутахассисликка оид фанлардан назарий билим олиш ва уни амалий кўникмалар орқали мустаҳкамлашга қаратилган.

Шунинг билан бирга ўрта тиббиёт ходимлари Ўзбекистон Республикаси ССВ томонидан чиқарилган мутахассисликка оид буйруқларни ва улар асосида ишлашни билишлари зарур.

“Ўзбекистон Республикасининг тиббиёт соҳасидаги давлат сиёсати” фани ўқув дастурига киритилган. Бугунги кун талабларига мувофиқ, мутахассисларини, фаолияти жараёнига информацион ва компьютер технологияларидан кенг фойдаланишга йўналтириш мақсадида дастурга “Тиббиётда замонавий ахборот коммуникацион технологиялари ” фанидан соатлар киритилган. Ушбу фанлар дастури ўрта тиббиёт ходимларига компьютер асослари бўйича зарур бўлган билимларни беришга йўналтирилган.

Шунингдек ушбу дастурда бугунги кунда нихоятда актуал бўлган “Стерилизацияда замонавий усуллар ва техника хавфсизлиги”, “Санитария эпидемиологик тартиб меъёрлари ва инфекция нозорат”, “Соғлом турмуш асослари, тўғри овқатланиш мезонлари ва жисмоний фаоллик” фанларидан иборат бўлиб, ўрта тиббиёт ходимларига соҳадаги замонавий, илмий ва амалий ютуқларга таянган ҳолда, тиббиётда юқумли касалликларни олдини олиш, ўта хавfli инфекцияларда тиббиёт хамшираси билиши зарур бўлган билим ва кўникмалар киритилганлиги ушбу ишчи ўқув дастурининг қийматини янада оширади. “Санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати лаборатория лаборанти” бўйича тегишли ҳар бир мавзу ўқув материаллари таърифлаб берилган ва ушбу мавзунини тўлиқ ўзлаштириш ҳамда талабга мувофиқ етарли назарий ва амалий билимларни эгаллаш учун зарур бўлган ҳажмда тақдим этилган. ўқув жараёнини модулли тиббий таълим тамойили бўйича, замонавий, инновацион, тиббий далилларга асосланган халқаро илмий-амалий маълумотларга, дастур талабларига мос ҳолда тузилган ўқув дастури бўйича тизимли ташкиллаштириш ва санитария-эпидемиологик осойишталик ва жамоат саломатлиги хизмати

лабораториялари лаборантлари учун керакли амалий кўникмаларни мустақил қўллашга тайёргарликни шакллантириш.

Соғлиқни сақлаш тизимидаги ислохотлар ва меъёрий ҳужжатларни иш фаолиятида қўллай билишни ўргатиш.

Тиббиёт соҳасидаги янгиликлар, ва стандартлар билан таништириб, улар асосида амалий кўникмаларини шакллантириш.

Назарий билимларни амалий кўникмалар орқали мустаҳкамлаш ва чуқур билимларни эгаллаб ишлаш ўргатилади.

Тиббий текшириш усуллари Юклатилган вазифаларни самарали бажариш учун иш жойини талаб даражасида таъминлайди ва ўрнатилган тартибда тиббий ҳужжатларни юрита олиш;

болалар ва ўсмирлар муассасаларига қўйиладиган гигиеник талабларни билиш;

овқатланиш гигиенаси ва озиқ-овқат маҳсулотларининг сифатига санитария гигиеник баҳо бериш;

токсикология бўйича захарли химикатлар қолдиғини аниқлаш;

бактериологик ва паразитологик лабораторияда текшириш усулларини билиш;

вирусологияда қўлланиладиган текшириш усулларини билиш;

коммунал гигиена, меҳнат гигиенаси ва меҳнат шароитига қўйиладиган ҳозирги кундаги санитария гигиеник талабларни билиш;

кечиктириб бўлмайдиган ҳолатларда шифокоргача биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш билимига эга бўлиши дастурни моҳиятини янада оширади деб ҳисоблайман.

Ушбу дастур асосида ўқитилган ҳамширалар замон талаблари, тиббиёт фани ютуқлари асосида билим олишларига ишончим комил.

Такризчи: АДТИ Тиббий профилактика факультети

Катта уқитувчиси, олий тоифали врач эпидемиолог

З.Мадярова

З.Мадярова



тиббиётдаги замонавий текширув усуллари, беморларга кечиктириб бўлмайдиган ёрдам ва парваришни, ҳозирги кунда қўлланилаётган янги тиббий технологиялар тўғрисида маълумотлар оладилар. Назарий машғулотлар маърузалар, суҳбатлар ва бошқа турли шаклларда марказ ёки ўқув масканида олиб борилади.

**Такризчи: АДТИ Тиббий
профилактика факультети**

Катта уқитувчиси, олий тоифали врач эпидемиолог



Ю.Ортиков

